

IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. 2024- yilning 1-oktabr holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 15 826 tani tashkil qilmoqda. Ularning soni 2023 yilning shu davriga nisbatan 91,3 foizni tashkil qildi.



Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
2024- yilning yanvar-sentabr oylarida (jamiga nisbatan foizda)
(dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz)

2022-yil




2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM**dagi ulushi 63,5 foizni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga 10,2 birlikni tashkil qildi.

2024-yilning yanvar-sentabr holatiga 3 568 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 101,8 foizga ko‘p demakdir.

2023-yil



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da


Savdo



Sanoat




2024-yil



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Qurilish



Boshqalar





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

Eng ko'p kichik biznes subyektlari savdo sohasida jami tashkil etilgan subyektlarning 25,9 foizini, sanoat sohasida 22,7 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida 28,7 %, qurilishda 3,5 % va boshqalarda 19,2 % ni tashkil etgan.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

- 9 107,7 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 52,4 %) o'zlashtirildi va 2023 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 107,8 % ga o'sdi;

- qurilish ishlari hajmi 4 084,0 mlrd. so'mni (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 89,4 %) va 2023 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 108,8 foizni tashkil qildi;

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 4 387,3 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining ulushi 23,4 %) tashkil qildi;

- 9 982,3 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 72,8 %), 2023 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 113,1 foizni tashkil qildi;

- chakana tovar aylanmasi 6 912,3 mlrd. so'mni (jami chakana tovar aylanmasining 27,4 %) va 2023 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 128,2 foizni tashkil qildi;

- jami 83,0 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 55,5 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, jami 346,8 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 26,6 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;

- avtomobil transportida 26 094,6 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 92,0 %) 2023 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 96,4 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transportida 70 212,9 ming yo'lovchi tashilib (umumiy yo'lovchi tashishdagi ulushi 94,4 %) 2023 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 101,2 foizni tashkil qildi;

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 74,1 foizni, sanoatda 23,4 foizni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 98,8 foizni, qurilishda 89,4 foizni, eksportda 55,5 foizni tashkil qilgan.




Viloyat bo'yicha kichik tadbirkorlikda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so'mda)

2024- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Viloyatda eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (1 774,1 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (484,4 mlrd. so'm) va Forish (508,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Jizzax viloyati bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahri (2 108,1 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (907,4 mlrd. so'm), G'allaorol (529,2 mlrd. so'm) va Baxmal (471,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



2024- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy ko'rsatkichlarda kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida ulushi, % da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Qishloq xo'jaligi
Jizzax viloyati	23,4	89,4	72,8	98,8
<i>shahar:</i>				
Jizzax	51,2	92,5	47,4	97,3
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	100,0	90,3	78,1	100,0
Baxmal	97,2	93,1	75,3	100,0
G'allaorol	1,5	94,3	67,6	100,0
Sharof Rashidov	99,9	97,0	86,8	99,5
Do'stlik	16,2	92,7	76,0	99,9
Zomin	43,9	66,0	68,1	91,0
Zarbdor	80,1	95,1	74,3	100,0
Zafarobod	7,5	88,4	76,5	98,2
Mirzacho'l	62,8	89,4	61,7	99,8
Paxtakor	38,8	97,1	59,0	99,4
Forish	63,3	94,7	81,5	100,0
Yangiobod	100,0	76,5	84,7	99,9

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlari sohalar bo'yicha tahlil qilinganida:

- sanoat tarmog'ida kichik tadbirkorlik Zafarobod (13,6 %), G'allaorol (1,5 %) tumanlarida kichik, Arnasoy (100,0 %), Yangiobod (100,0 %), Sharof Rashidov (99,9 %) tumanlarida yuqori ulushni tashkil etmoqda.

- qurilish tarmog'ida kichik tadbirkorlik ulushi Zomin (66,0 %), Yangiobod (76,5 %) hamda Zafarobod (88,4 %) tumanlarida kam foizni tashkil etadi.

- xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi Jizzax shahrida (47,4 %), Paxtakor tumani (59,0 %) qolgan hududlarga nisbatan kam bo'lishiga qaramasdan, hajmi jihatidan qolgan hududlardan yuqori o'ringa ega.

- qishloq xo'jaligi tarmog'ida viloyat miqyosida yaratiladigan qo'shimcha qiymatning barchasi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi.